

TA'LIM JARAYONIDA NOSTANDART TESTLARDAN FOYDALANISH VA UNING AHAMIYATI

Tangriyeva Umida Allaberganovna

*Urganch davlat universiteti akademik litseyining
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi*

Annotatsiya: *maqolada bugungi kunda ta'lim jarayonida qo'llash o'rinli va samarali bo'lgan nostandart testlar hamda ularning ahamiyatli tomonlari haqida ma'lumot beriladi.*

Kalit so'zlar: *ta'lim, BKMning shakllanishi, nostandart testlar, nutq madaniyati, ta'sirchanlik, zamonaviy yondashuv.*

Bugungi kunda mamlakatimiz ta'lim sohasida juda katta islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, akademik litseylarning ta'lim-tarbiya jarayonlarini samarali tashkil etishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Ma'lumki, akademik litsey o'quvchilarining o'quv faoliyati mazmunidan kelib chiqib, o'qitish vositalari hamda metodlarini maqsadga muvofiq tarzda tanlab olgan holda tashkil etish juda muhimdir.

Blum taksonomiyasi (bilish, tushunish, amaliyotda qo'llash, tahlil, sintez, xulosalash)ga ko'ra o'quvchilar bilimni aniqlashda test topshiriqlaridan ham unumli foydalaniladi. O'quvchilarning muayyan mavzu bo'yicha bilim, ma'lumot, axborotlarni o'zlashtirganlik darajasini aniqlashda, ayniqsa, nostandart testlarning ahamiyati katta. Nostandart testlarning turli shakllari bo'lib, ular o'quvchilarning mavzu bo'yicha obyektlarni aniqlashi, ularga ta'rif berishi, ma'lumotlarni qayta ishlashi, o'z fikrini bayon etishi, muayyan jarayon, obyekt yoki voqeaning mohiyatini tushuntirishi, mazkur jarayon, obyekt yoki voqeaning o'ziga xos xususiyatlarini ajratib ko'rsatishiga yordam beradi. Zero, bularni standart testlar orqali amalga oshirib bo'lmaydi.

Nostandart testlarning turlari va qo'llanilishi akademik litseylarda o'qitiladigan ona tili fanining “Nutq madaniyati” modulini o'qitish misolida ko'rib chiqaylik. U o'quvchilarga notiqlik san'atining mohiyatini ochib berish bilan birga, ularda nutq madaniyati hamda mutalaa madaniyatini shakllantirishga ham xizmat qiladi. O'quvchilarning fan yuzasidan olgan bilimlarini tekshirishda, ularni haqqoniy baholashda nostandart testlarning quyidagi turlaridan samarali foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi.

1. Quyidagi asarlarning qaysi birida nutq masalasiga e'tibor qaratilgan?

1. Ibn Sinoning “Tib qonunlari” asarida. 2. Beruniyning “Hindiston” asarida. 3.



Beruniyning “Geodeziya” asarida. 4. Navoiyning “Hiloliya” qasidasida. 5. Yusuf Xos Hojibning “Qutadg`u bilig” asarida. 6. A.Navoiyning “Mahbub ul-qulub” asarida. 7. Mahmud Koshg`ariyning “Devoni lug`atit turk” asarida. 8. Ahmad Yugnakiyning “Hibat ul-haqoyiq” asarida.

Javob: 3,5,6,8

2. *“Ey farzand, so`zning yuz va orqa tomonini bilgil, ularga rioya qilgil, so`zlaganda ma`noli gapir, bu notiqlikning alomatidir”*. Ushbu fikr muallifi kim va jumla nutqning qaysi sifati bilan bog`liq?
1. Alisher Navoiy, nutqning aniqligi. 2. Kaykovus, nutqning aniqligi. 3. Kaykovus, nutqning to`g`riligi. 4. Beruniy, nutqning mantiqiyliqi. 5. Ibn Sino, nutqning sofligi.

Javob: 2

3. Uslublarning turlarini ularning xususiyatlari bilan juftlang.

1. Publitsistik uslub	A	Nutqning aniqligi, dalil va ma`lumotlarga boyligi, qisqa va lo`nda ifodalanishi, ta`rif va qoidalarning keng qo`llanilishi
2. So`zlashuv uslubi	B	Davrning ijtimoiy-siyosiy dolzarb masalalarini jo`shqinlik bilan aks ettirilishi
3. Badiiy uslub	C	Nutqning elliptik xarakterga egaligi, ya`ni bayonotning ma`lum qismi nutqda qoldirilib ketilishi
4. Ilmiy uslub	D	Ta`sirchanlikka boylig
Javob	1-B	2-C
		3-D
		4-A

4. 1) tushunarlik; 2) estetik ta`sir etish; 3) soddalik; 4) mantiqiylik; 5) ta`sirchanlik; 6) aniqlik; 7) erkinlik. Ushbu xususiyatlardan qaysilari publitsistik uslubga tegishli?

Javob: 1,3,6

5. Tilga oid ta`riflarni juftlang.

1. Tilning qaysi jarayonida normativ grammatika qoidalariga, so`zlarning talaffuz me`yorlariga u qadar e`tibor berilmaydi?	A. Insonlar orasidagi munosabat, aloqa quroli
2. Til – bu...	B. Umumxalq tili
3. Obrazli, emotsional,	C. Adabiy til



umumlashgan tip	
4. Matbuot, fan, adabiyot, kitob, radio, televideniye, teatr tili – bu...	D. Badiiy asar tili

Javob	1-B	2-A	3-D	4-C
--------------	------------	------------	------------	------------

6. To`g`ri javoblarni aniqlang. Javoblar jadvaliga “ha” yoki “yo`q” so`zlarini yozing. “Maxsus leksik qatlamlar”

1. Neologizmlar 2. Kompyuterga oid so`zlar 3. Bosh harf bilan yoziladigan so`zlar 4. Dialektizmlar 5. Onomastika 6. Jargon so`zlar 7. Omonimlar	8. Ijtimoiy-siyosiy so`zlar 9. Sinonimlar 10. Varvarizmlar 11. Teatr, kino, matbuotga oid so`zlar 12. Antonimlar 13. Sud-huquqqa oid so`zlar 14. Kasb-hunarga oid so`zlar
---	---

Javob	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14
	ha	yo`q	yo`q	ha	yo`q	ha	ha	yo`q	ha	ha	yo`q	ha	yo`q	ha

7. Quyida berilgan misollarni so`zlarning shakl va ma`no munosabatiga ko`ra turlariga ajrating hamda mos raqamlarni jadvalning javob raqamlari qismiga yozing. 1) *past, baland*; 2) *chiroyli, go`zal*; 3) *barmoq, bormoq*; 4) *tut, ter, o`t*; 5) *sabr, toqat*; 6) *yer, osmon*; 7) *asr, asir*; 8) *aqlli, dono*; 9) *tush, tom, osh*.

So`zlarning shakl va ma`no munosabatiga ko`ra turlari	Javob raqamlari
Omonim so`zlar	4,9
Sinonim so`zlar	2,5,8
Antonim so`zlar	1,6
Paronim so`zlar	3,7

8. Quyidagi iboralarning birortasiga ham ma`nosi mos kelmaydigan iborani belgilang.

<i>Ko`zi to`rt bo`lmoq</i>	<i>Ko`ziga issiq ko`rinmoq</i>	<i>Ko`z tashlamoq</i>
<i>Ko`ziga cho`p solmoq</i>	<i>Ko`zi pishmoq</i>	<i>Ko`z yummoq</i>



- 1) vafot etmoq; 2) tanishdek tuyilmoq; 3) ko'rish ne'matidan mahrum bo'lmoq; 4) qisqa muddatga qaramoq; 5) aldamoq; 6) tajribasi ortmoq, o'rganmoq; 7) ko'zining qorachig'iday asrash; 8) ko'zining quvvati pasaymoq; 9) intizorlik bilan kutmoq.

A	3,7,8
B	2,4,6
C	1,5,7
D	3,6,9

Ko'rinadiki, yuqoridagi kabi nostandart test topshiriqlari o'quvchilarning o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarini aniqlashdan tashqari, ularni miqdor hamda sifat jihatidan tahlil qilishga, o'z-o'zini nazorat qilishga ham yordam beradi. Shunday ekan, bunday testlarni ta'lim jarayonida qo'llash maqsadga muvofiq bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Abduruhmonov Sh., Asqarova M., Hojiyev A., Rasulov, Doniyorov X. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – T.: “O'qituvchi”, 1980.
2. Mengliyev B., Xoliyorov O'. O'zbek tilidan universal qo'llanma. – T.: “FAN”, 2008.
3. Tursunov U., Muxtorov J., Rahmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Morfologiya, leksikologiya. Qo'llanma. – T.: O'qituvchi, 1965.
4. Safarova R., Musayev U. va b. O'zbekiston Respublikasida umumiy o'rta ta'lim strategiyasi muammolari va ta'lim mazmunining yangi modellari, ularni tatbiq etish yo'llari. – T.: Fan, 2005
5. Internet ma'lumotlari.

